

*Surxondaryo deganda, insoniyat sivilizatsiyasining beshiklaridan biri, buyuk tarix va boy merosga ega bo'lgan qadimiy va betakror o'lka ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.*

*Islom KARIMOV*



## Kundan hunga yashnaydi Surxon, Ona yurtim gullagan makon!



Prezidentimizning  
Farmoniga muvofiq,  
Termiz shahri Amir  
Temur ordeni bilan  
mukofotlandi.

### MENING KO'NGIL DIYORIMSAN

Seni olqishlagay dunyo  
hayot bog'bonisan, Termiz,  
Dilim ichra ziyo sochgan  
mehr ummonisan, Termiz.

Kezib dilxush quchog'ingda  
mislsiz bog'-u rog'ingda,  
Oqar Jayhun qarog'ingda  
quyoshning konisan, Termiz.

Yoshargan navbahorimsan,  
mening ko'ngil diyorimsan,  
Mudom baxtimda borimsan,  
yo'lim poyonisan, Termiz.

Kechib zahmat- ziyonlardan,  
hisobsiz imtihonlardan,  
Oshib yuksak dovonlardan  
Humo posbonisan, Termiz.


Muborak bu ulug' kunlar,  
kelar yulduz sochib tunlar,  
Yarashgay oltin ustunlar,  
jahon ayvonisan, Termiz.

Makonsan pahlavonlarga,  
samodil qahramonlarga,  
Boqib nurli zamonalarga,  
Vatan qalqonisan, Termiz.

Ko'rib el-yurtni e'zozin,  
olar Axtamquli sozin,  
Buyuk Sohibqiron so'zin,  
muqaddas shonisan, Termiz.

AXTAMQULI

# TERMIZIYLAR IZDOSHLARIMIZ



Alisher PARDAEV,  
Surxondaryo viloyat Xalq  
ta'limi boshqarmasi boshlig'i

Barcha ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari sifatini tubdan yaxshilash, darslarda milliy g'oya, bag'rikenglik, mafkuramizning asosiy maqsad va yo'naliishlarini muntazam tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Umumta'lism maktablari o'quvchilarining huquqiy bilimlарини ошириш мақсадидага «Huquq bilimdonlari» tanloving o'tgan yilgi viloyat bosqichida Jarqo'rg'on tumanidagi 24-umumta'lism maktabining «Minor» jamoasi 1-o'rinni, Sherobod tumanidagi 9-umumta'lism maktabining «Mezon» jamoasi va Angor tumanidagi 3-umumta'lism maktabining «Yosh huquqshunoslar» jamoasi 2-o'rinni, Denov tumanidagi 81-umumta'lism maktabining «Adolat» jamoasi va Boysun tumanidagi 47-umumta'lism maktabining «Qalqon» jamoasi hamda Qumqo'rg'on tumanidagi 35-umumta'lism maktabining «Turon» jamoasi 3-o'rinni egallashdi. Tanlovdva g'olib bo'lgan «Minor» jamoasi Toshkent shahrida o'tkazilgan respublika bosqichida 3-o'rinni egallashga tuyassar bo'ldi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarini rivojlantirish hamda zamonaviy moddiy-texnik bazasini shakkantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.



M.Qoriyoqubov nomidagi ko'rik-tanloving respublika bosqichida Sho'rchi tumanidagi 7-BMSM o'quvchisi Elmurod To'rayev doira an'anaviy yo'naliishi bo'yicha, Nafisa Erkinova dutor akadem yo'naliishi bo'yicha 1-o'rinni, Denov tumanidagi 14-BMSM o'quvchisi Bobomurod Bekmurodov nay an'anaviy yo'naliishi bo'yicha 2-o'rinni, Sherobod tumanidagi 8-BMSM o'quvchisi Behruz Jo'rayev g'ijjik an'anaviy yo'naliishi bo'yicha 2-o'rinni, Jarqo'rg'on tumanidagi 5-BMSM o'quvchisi Maftuna Boltayeva raqs yo'naliishi bo'yicha 3-o'rinni, Qiziriq tumanidagi 12-BMSM 5-sinf o'quvchisi Baxtiyor Ne'matov qashqar rubob an'anaviy yo'naliishi bo'yicha 3-o'rinni, Boysun tumanidagi 6-BMSM o'quvchisi Zilola Xayrullayeva an'anaviy xonandalik yo'naliishi bo'yicha 3-o'rinni egalladilar.

O'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish maqsadida qiziqishlari asosida sport va fan to'garaklari tashkil etilgan. Bundan tashqari, barcha ta'lim muassasalarida «Ustoz-shogird»

an'anasi bo'yicha 57 841 nafar o'quvchilar 3257 nafar o'qituvchilarga birkirilgan. «Oila - mahalla - ta'lim muassasasi» hamkorligini kuchaytirish ishlari olib borish uchun o'qituvchilarning ota-onalari va mahalla faollari bilan ma'rifiy tadbirlar o'tkazish tashkil etilgan.

Yosh kitobxonlarni axborot-resurs markaziga ko'proq jalb etish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazishlari ga ko'maklashish maqsadida markazning maktabgacha va kichik yoshdagagi bolalarga xizmat ko'rsatish bo'limida turli xil qiziquvchilar klublari ish olib bormoqda. Jumladan, «Mohir qo'llar», «Yosh musavvirlar» klublariga 100 dan ortiq bolalar a'zo qilinib, ular bilan muntazam ravishda mashg'ulotlar o'tkazilib kelinmoqda.

An'anaviy «Kitobxonlar bayrami» tadbirlari doirasidagi «Bir farzanda uch kitob» aksiyasida viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tizimidagi 856 ta umumta'lism muassasalarining o'quvchilariga ota-onalar tomonidan ular sevib o'qiydigan kitoblar sovg'a qilindi.

Viloyat bosqichida 1-o'rinni egallagan Boysun tumanidagi 35-umumta'lism maktabi jamoasi sharafini himoya qilgan Ulug'oy Abdurakimova Toshkent shahrida o'tkazilgan ko'rik-tanloving respublika bosqichida faol ishtirok etib, faxrlı 2-o'rinni qo'liga kiritdi.

«Sog'lom bola yili» munosabati bilan Respublika bolalar kutubxonasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va «Tong yulduzi» gazetasi bilan hamkorlikda o'tkazilib kelinayotgan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ko'rik-tanlovinga 138 nafar ijodkor o'quvchilarning ijodiy ishlari tavsiya etildi. Angor, Denov, Qumqo'rg'on tumanlari hamda Termiz shahridan yuborilgan o'quvchilarning ijod namunalari «Tong yulduzi» gazetasini sahifalarida yoritib borildi.

Bilim maskanlarida olib borilayotgan ishlar haqida yana ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Eng asosiysi, buyuk termiziylar izdoshlari bo'lgan yoshlarimizning asl maqsadi kelajakda yetuk mutaxassislar bo'lib, ona Vatan xizmatiga sadoqat bilan yondashishdir.

Ko'pkari. Xalqimizning qadimiy qadriyatlaridan biri. Bugungi kungacha bardavom bo'lib kelayotgan bu ommaviy o'yin tomoshabinlarga hamisha o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Uloq chopuvchi chavandozlar ko'pkari oldidan otlarini maydonga shaylash uchun puxta hozirlik ko'radilar. O'zida ishonch hosil qilgan chavandozgina raqiblarini dog'da qoldirib, uloqni davradan olib chiqishga va minglab tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi.

## ULOQ SURXONLIKLARDA KETDI


Surxondaryo viloyati o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatiga bag'ishlangan maxsus sonni tayyorlash jarayonida negadir ko'pkari xayolimizga kelidi. Ta'bir joiz bo'lsa, yil yakunida



gazeta va jurnallarga obuna bo'lish ham xuddi ko'pkariga o'xshaydi. Nashrimizga obuna bo'lishda o'tgan yil yakuniga ko'ra ajoyib holatlari yuz berdi. Hech kutilmaganda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo viloyati, Toshkent shahri o'quvchilar obuna bo'lishda sovrindorlar qatoridan munosib joy oldilar. Har doim peshqadamlikni qo'ldan bermay keladigan vodiylar viloyatlari hamda Samarcand viloyati o'quvchilarini ham dog'da qoldirishdi. Obuna yakunlanishi arafasida esa surxonlik o'quvchilar mingan tulporlar yanada chopag'onligi ma'lum bo'lib qoldi. Ular birin-ketin barcha chavandozlar ortda qoldira boshladilar. Yakunda esa marranning oldindi qatoridan munosib joy oldilar. Alpomish yurti o'g'lonlariga hammaning havasi keldi.

Ularning yutuqlari bilan yaqindan tanishish naqadar zavqli. Biz shu fikrdamiz. Gazetamizni varaqlar ekansiz, sizning ham yuragingizni shunday tuyg'ular qamrab olishi shubhasiz. Keling, birligalikda zavqlanamiz.





## SHARQNING AHRI ULUG'VOR

Qadimiy Baqtriya, Kushonlar davlati, toharlar o'kasining markazi qal'alalaridan biri hisoblangan, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan, tarixda Tarmita, Tarmantis, Oks Iskandariysi, Oks Antioxiysi, G'ulg'ula kabi nomlar bilan atalgan Termiz Sharqning ulug'vor shahri sifatida e'tirof etiladi. Muarrixlar asarlarida islam olamining «Madinat ul-rijol» (Mardlar shahri) unvoniga musharraf bo'lgan Termizni «zardushtiyar, baqrilar, so'g'diyar, yunonlar, buddavaylar, etfaqliy tarixini bag'rida jamlagan, ularning o'zaro uyg'unlikdagi tamadduni uchun zamin bo'lgan, ilm-fan va madaniyatlar chorrahasidagi shahar», deb ataganlar. Bu shahardan nafaqat Sharq, balki dunyo ilm-fani, madaniyati, tamadduniga katta hissa qo'shgan ko'plab allomalar yetishib chiqqan. Termiziyo nisbasi bilan faoliyat yuritgan Solih ibn Muhammad at-Termiziyy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziyy, Al-Jarud ibn Muoz at-Termiziyy, Sobir at-Termiziyy, Samandar at-Termiziyy, Ali ibn Hasan at-Termiziyy, Hakim at-Termiziyy, Abu Bakr Muhammad ibn Varroq at-Termiziyy kabi yuzlab allomalar ilm-fanning turli sohalari bo'yicha beqiyos meros qoldirganlar.

### YAXSHI DO'ST

*Men bo'sh vaqtlarimda she'rilar yozishni, badiiy kitoblar mutolaa qilishni yoqtiraman.*

Chunki ko'p kitob o'qish kishining dunyoqarashini kengaytirib, so'z boyligini oshiradi. Bu esa men uchun juda muhim, yozgan she'rilarmda eng chiroyli ibrorlardan foydalananida juda istayman. Bunda bizga kitobxonlik yaqididan yordam beradi. Tengdoshlarim bilan o'qigan kitoblarimiz yuzasidan bahs-munozaralar yuritamiz.

Aziz tengdosh, siz ham ko'proq kitob o'qing, zero, insonga kitobdan yaxshi do'st topilmaydi.

**Xursanoy MAMATQULOVA,**  
**Termiz shahridagi 3-umumta'l'm**  
**maktabining 6-«E» sınıf**  
**o'quvchisi**

Bizning maktab ingliz tili faniga ixtisoslashtirilgan bo'lib, shahar miqyosida o'z mavqeiga egaligi bilan ajralib turadi. Ingliz tili o'qituvchilaridan D. Choriyeva, M. Mo'minova, S. Gulboyeva, B. Tangirqulova biz o'quvchilarga ingliz tili fanidan saboq beradi.

Maktabimizda to'garaklar juda yaxshi tashkil etilgan.

Muallimalarimiz biz o'quvchilarini guruhlarga bo'lib, turli o'yinlar orqali darsni tushuntiradilar. Men ingliz tili to'garagiga muntagam qatnashib kelmoqdaman, chunki kelajakda tarjimon bo'lish istagim bor. Bunda ustozim Dinara Choriyeva menga katta ko'mak beryaptilar. Biz ular bilan darslikdan tashqari kitoblardan mashqolar bajaramiz, tarjimalar qilamiz.

Maktabimizda turli fanlar yuzasidan musobaqalar, anjumanlar, sport musobaqlari va «Kamolot» festivallari ham o'tkazilib kelinadi. Kuni kecha maktabimizda «Orasta qizlar» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Bunda qizlarimiz o'z mahoratlari ko'rsatib, faxrli o'rirlarga ega bo'ldilar.

Bizning barcha iibratli ishlariimizga mehribon va jonkuyar sinf rahbarimiz Dilbar Qulmatova bosh bo'ladilar. Buning uchun Dilbar opadan va barcha ustozlarimizdan minnatdormiz.

**Dilfuza RUSTAMOVA,**  
**Denov tumanidagi 10-ixtisoslashtirilgan**  
**davlat umumta'l'm maktabining 6-sinf o'quvchisi**

Ko'hnad zamin ohanglari

## MEHR NURI YOG'ILGAN DARGOH

O'zbekistonimizning janub gavhari bo'lmish Surxondaryo viloyatining markazi Termiz shahridagi 12-Mehribonlik uyida zamonaivy davlat ta'lim standartlari asosida chuqur bilim olish, sport bilan shug'ullanish, o'zlar yoqtirgan to'garaklarga qatnashish hamda maroqli dam olishlari uchun tarbiyalanuvchilarga barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.



Bolajonlarning o'zlar qiziqqan badiiy-adabiy kitoblar va gazeta-jurnallarni mutolaa qilishlari uchun muktab kutubxonasidan tashqari viloyat axborot-resurs markazidan unumli foydalaniш yaxshiy yo'liga qo'yilgan.

Maskan tarbiyalanuvchilari Respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan turli nufuzli ko'rik-tanlov va sport musobaqalarida viloyat sha'nini munosib himoya qilib kelishmoqda. Jumladan, o'tgan yilning 31-oktabr - 2-noyabr kunlari bo'lib o'tgan «Yoshlar, o'smirlar va kattalar o'rtasida» karate bo'yicha O'zbekiston kubogida muassasaning 4 nafar tarbiyalanuvchilari Humoyun Mahmudov 1-o'rin, Shahnoza Primqulova 2-o'rin, Akmal



### ORZULARIM BESHIGI — MAKTAB

*Agar dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, eng ulug'vor kasb bu o'qituvchilikdir.*



Qalbi osmon bolalar

## SEVIMLI NASHRIMIZ

*Men 7-«V» sınıf o'quvchilariga rahbarlik qilaman.  
Sevimli nashrimizga bu yil ham obuna bo'ldik.  
Bolalarning quvnoq hayotidan zavqlanib, bo'sh vaqtlarimda ularga atab she'rilar yozib turaman.  
Tahririyatga yangi she'rilarimdan jo'natyapman.*

### Bag'rikenglik odati bor

Muqaddas deb bilar burchin,  
Ezgu ishga sarflar kuchin.  
Xizmat qilar yurti uchun,  
Bir-biridan sara bari,  
O'zbekiston askarları...

Xush kelishgan qomati bor,  
Har bir ishda omadi bor.  
Bag'rikenglik odati bor,  
Bir-biridan sara bari,  
O'zbekiston askarları...

**Xolboy SHERDONOV,**  
**Sherobod tumanidagi**  
**19-umumta'l'm maktabi**  
**o'qituvchisi**

# XALOSKOR - ELGA MADADKOR



Ular baland tog' dovonlariga xuddi qoplonddek tez va oson ko'tariladilar. Suvda esa baliq kabi mahorat bilan suzadilar, olov ichiga samandar qush kabi kirib

*Surxon tog'lari bag'rida shunday bir go'zal maskan bor. Bu maskanda ko'ksi tog'lardek baland, mard, tanti odamlar yashaydi. Tuman markazidan ancha uzoqda joylashgan «Duoba» mahallasiga yo'lingiz tushsa, go'zal tabiat quchog'ida ko'nglingiz yayraydi. Tog', yo'lingizdan chiqqan bepoyon archazorlar orasidan kakliklarning kakra-kaklab kuylayotgani-yu, har zamonda quyonlarning dikirlab yugurganiga ko'zingiz tushadi.*

## TOG'LARDAGI BEQIYOS MASKAN

450 dan ziyod xonodon istiqomat qiladigan duobalik-larning asosiy daromadi chorvachilik, bog'dorchilik, dehqonchilikdan iborat. Olis tog' qishloqlarda yaqin o'tgan davr ichida ko'plab xayriyli ishlar amalga oshirildi. O'tgan yili mahallaga yaqin joyda Boysun qishloq xo'jaligi va servis kolleji ishga tushirildi. Bu kollejda nafaqat Duoba, balki qo'shni «Qo'rg'oncha» mahallasi o'quvchilar ham tahsil olmoqqa. Bu tog'da yashovchi aholi uchun niyoyatda katta voqeа bo'ldi.

Duoba mahallasida uchta maktab bo'lib, ularda 500 dan ziyod o'quvchilar ta'lim-tarbiya olishadi. Ayniqsa, 17-umumta'lim maktabi qurilgandan keyin o'quvchilarining ilm olishlari uchun keng imkoniyatlar eshibi ochildi. Negaki, ilgarigi maktabda o'quvchilarining ta'lim olishlari uchun sinfonalar yetishmasdi. Endi esa yangi maskanda o'quvchilar yayrab o'qishyapti. Yangiliklardan yana biri Duobada boshlang'ich sinflarga mo'ljallangan, zamonaviy jihozlarga ega 140 o'rinni maktab binosining ishga tushirilishi mahalla aholisiga ajoyib tuhfa bo'ldi. Muassasa qurilishida maktab direktori Isroi Ahmedov bosh-qosh bo'ldi.

Ayni kunlarda yangi maktabda ta'lim olayotgan 3-sinf o'quvchisi Ulug'bek Amonqulov qalbidagi quvonchini yashirolmasdan:

- Dunyoda bizning maktabimizdan go'zal maskan bo'lmasa kerak. Shunday ekan, biz doimo a'lo baholarga o'qishga ahd qildik, - deydi.

Olis tog' qishloqlarida bu kabi ajoyib maktablar barpo etilayotgani davlatimizning yoshlarga bo'lgan cheksiz g'amxo'rligi namunasidir. Shunday ekan, yoshlarimiz o'zlarining bilim va salohiyati bilan kelajakda yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishadi, degan umiddamiz.

Izzat AHMEDOV

*Barchamizga o'quvchi, o'qituvchi, uchuvchi kabi so'zlar qanchalik tanish bo'lsa, qutqaruvchi so'zi ham shunchalar yaqindir. Chunki qutqaruvchilik ham sharafla, qadrli va shu bilan birga, g'oyat mashaqqatlari kasblardan biridir. Favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar insonlarni ofat va falokatlardan asrab qoladilar, ularning hayotini talofatlardan xalos etadilar. Shu sababli, ularni xaloskorlar deb ataymiz. Chindan ham, xaloskorlar el madadkoridir.*

boradilar.

Maktablarimizda, kollejlarmizda qutqaruvchilar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, o'quv mashg'ulotlari ko'p o'tkazib turiladi. Bundan maqsad, sizdek o'quvchilarni favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, to'g'ri va aniq harakat qilishga o'rgatishdir. Shundan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida hamda yozgi dam olish maskanlarida Fuqaro muhofazasi kunlari, Yosh qutqaruvchilar musobaqalar o'tkaziladi. Musobaqalar davomida maxsus texnikalarning ko'rgazmalari, amaliy

o'quv mashqlari tashkil qilinadi.

Darvoqe, shuni ham aytish kerakki, ko'plab siz kabi o'quvchi-yoshlar kelajakda ana shunday sharafla kasbni tanlab, jasoratli va mahoratlari qutqaruvchi bo'lib, el-yurtimiz xotirjamli yo'lida sidqidildan xizmat qilishni dillariga tukkanlar.

Shunday ekan, egzu savobli maqsad yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilayotgan sharafla kasb sohiblari – qutqaruvchilarga mustahkam salomatlik, oilaviy xotirjamlik tilab qolamiz.

Dilshod RAJAB

## SHOGIRDLARIM – MENING QUVONCHIM

*– Sariosiyoda 74 ta umumta'lim, 19 ta maktabgacha ta'lim muassasasi hamda «Barkamol avlod» bolalar markazi faoliyat ko'rsatmoqda, – deydi tuman XTMFMT va TE bo'limi rahbari Ahmadjon BOBOYEV.*

Tuman yoshlari umumta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari o'tasida o'tkaziladigan fan olimpiadasidagi samaradorlil bo'yicha respublika miqyosida 11-o'rinda, viloyatda besh yillardan buyon faxrli 1-o'rinni egallab kelmoqda. Bu muvaffaqiyatga 3-, 12-, 29-, 38-, 55-, 58-, 62- va 68-umumta'lim maktabi o'quvchilarining qo'shgan hissasini alohida qayd qilish lozim.

bo'yicha tumanimiz jamoasi yetakchi o'rinni egalladi.

O'tgan yilda «Yilning eng yaxshi maktab direktori» ko'rik-tanloving respublika bosqichida 6-umumta'lim maktabi direktori Maxfirat Ne'matullayeva, 62-umumta'lim maktabi direktori Rahobza Qorayeva faxrli 1-o'rинга sazovor bo'ldi.

2014-yilda «Barkamol avlod» bolalar markazi o'quvchilari «O'zligingdan aylanay, o'lkam» tanlovida viloyatda birinchi, respublikada 3-o'rinni egallashdi.

Bundan tashqari, taniqli ijodkorlar, olyi o'quv yurtlarining professor o'qituvchilari, qo'yingki, el ardog idagi insonlar bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazish tuman maktablarida yaxshi an'anaga aylangan. O'quvchilar bu tadbirilar tufayli olam-olama taassurotlarga ega bo'ladilar. Bunday anjumanlarni har tomonlama sermazmun va qiziqarli o'tishida Ahmadjon Boboyev hamisha kamarkasta. O'tgan yilning may oyida tuman maktablarida o'tkazilgan abadiyot va san'at kunlarida bu fidoyi insonning tashabbuskorligiga havasimiz kelib, ko'nglimizda u kishining faoliyatini kengroq yoritish istagi tug'ilgandi. Mavridi kelib, Surxondaryo viloyat o'quvchilar uchun maxsus son tayyorlash jarayonida Ahmadjon aka haqida batafsil to'xtalmoqchi edik. Lekin bu gal ham aytganimiz bo'lmadi. Domla o'zları emas, balki hamkasbulari va iqtidorli o'quvchilar haqida gapirishni ma'qul ko'rdilar. Ish odami mana shunday bo'ladi, degan yupanch bilan qoldik. Ustoz va uning shogirdlari yutug'i yanada ko'payishiga esa ishonchimiz komil. Chunki bu borada barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan.



*Hamroqul MINGBOYEV tumandagi barcha ibratli ishlarning ishtirokchisi*



5-8-sinf o'quvchilari o'tasida o'tkazilab kelinayotgan «Bilimlar bellashuv»da ham o'quvchilarimiz faol qatnashib, o'tgan yillardan mobaynida respublika bosqichida 68-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Tamanno Boboqulova 3-o'rinni, 9-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Shukrona Sirojiddinova o'zbek tili fanidan 3-o'rinni egalladilar. Respublikada g'olib deb topilgan o'quvchilar orasida 68-umumta'lim maktabi o'quvchisi 95 ball to'plaganligi sababli maktab jamoasi respublikada yuqori o'rinni, barcha ishtirokchilar erishgan natijalarini

## THE LITTLE PINK ROSE

Once there was a little pink Rosebud and she lived down in a little dark house under the ground. One day she was sitting there, all by herself and it was very still. Suddenly, she heard a little TAP, TAP, TAP, at the door.

«Who is that?» she said.

«It's the Rain and I want to come in» said a soft, sad, little voice.

– No, you can't come in, – the little Rosebud said.

By and by she heard another little TAP, TAP, TAP on the window pane.

«Who is there?» she said.

The same soft little voice answered, «It's the Rain, and I want to come in!»

– No, you can't come in, – said the little Rosebud.

Then it was very still for a long time. At last, there came a little rustling, whispering sound, all round the window: rustle, whisper, whisper.

«Who is there?» said the little Rosebud.

«It's the Sunshine», said a little, soft, cheery voice, «and I want to come in!»

«N-no», said the little pink rose, «you can't come in» and she sat still again.

Pretty soon she heard the sweet little rustling noise at the key-hole.

«Who is there?» she said.

«It's the Sunshine», said the cheery little voice and I want to come in, I want to come in!

«No, no» – said the little pink rose, «you cannot come in».

By and by, as she sat so still, she heard TAP, TAP, TAP, and rustle, whisper, whisper, all up and down the window pane and on the door, at the key-hole.

«Who is there?» she said.

«It's the Rain and the Sun – said two little voices, together, «and we want to come in! We want to come in! We want to come in!»

«Dear, dear!» said the little Rosebud, «if there are two of you, I suppose I shall have to let you in».

So she opened the door a little wee crack, and they came in. And one took one of her little hands, and the other took her other little hand, and they ran, ran,

ran with her, right up to the top of the ground. Then they said, –

«Poke your head through!»

So she poked her head through and she was in the midst of a beautiful garden. It was springtime, and all the other flowers had their heads poked through and she was the prettiest little pink rose in the whole garden.

## IT IS INTERESTING

### [Bu qiziq]

**See (ko'rmoq)** – is the ability to use your eyes.

**Look (ko'rmoq)** – often means to look carefully, pay attention to something that is not moving.

**Watch (tomosha qilmoq)** – often means to pay attention to something this is moving.

**For example:** I can't see a thing without my glasses.

**Do you watch TV every day?**

I can't find my keys and I've looked everywhere.

## TONGUE TWISTERS

### (Tez aytishlar)

Kitty caught the kitten  
in the kitchen.

Not these things here, but  
those things there.

I scream you scream we  
all scream for ice  
cream...as a good

Eleven owls licked eleven  
little liquorice lollipops.

Umida UMAROVA

## Lesson 19

### SINGULAR AND PLURAL (Birlik va ko'plik)

Ingliz tilida sanaladigan otlarga -s qo'shimchasini qo'shish orqali ko'plik yasaladi:

**Singular**  
a nice place  
a week



**Plural**  
many nice places  
six weeks



some flowers

Agar so'zlarning oxiri -s, -sh, -ch, -x, va -o harflari bilan tugasa, ularga -s emas, -es qo'shimchasi qo'shiladi: bus - buses, dish - dishes, photo - photos.

So'z oxiri -y bilan tugasa, u -ies ga o'zgaradi, -f esa -ves ga: baby - babies, dictionary - dictionaries, shelf - shelves, knife - knives.

**Ushbu otlar ingliz tilida har doim ko'plikda ishlatalidi:**  
scissors, glasses, trousers, jeans, shorts, pyjamas, tights.

For example:

Do you wear glasses?  
I need the scissors.  
Where are they?

**Lekin istisno holat ham mavjud bo'lib, bunda ushbu so'zlarga -s yoki -es qo'shimchasi qo'shilmaydi, aksincha, ularning o'zagi o'zgarishi orqali ko'plik yasaladi:**

One foot - two feet  
A woman - some women  
A man - two men  
A child - many children



A tooth - thirty two teeth  
A goose - some geese  
A person - many people

Ibrohim FAYZIRAHMONOV

### Check yourself (O'zingizni sinab ko'ring)

Write the numbers in words.

17 seventeen

29 \_\_\_\_\_

37 \_\_\_\_\_

43 \_\_\_\_\_

59 \_\_\_\_\_

62 \_\_\_\_\_

74 \_\_\_\_\_

88 \_\_\_\_\_

91 \_\_\_\_\_

100 \_\_\_\_\_

### Riddles (Topishmoqlar)

Two brothers live together,  
But they can't see each other.



It hasn't mouth but it has teeth,  
And has a work on our head.



Zilola JAMOLOVA

# BUYUK AJDODLARIMIZ MEROsi

*Abu Iso at-Termiziining buyuk alloma, ulug' muhaddis sifatida ulug'lanishi bejiz emas. Allomaning to'iq ism va nasabi Muhammad ibn Iso ibn Savra bin Muso ibn Zahhok as-Sullamiy al-Bug'i y at-Termizi deb aytildi. Uning ismidagi Abu Iso kunyasi hisoblanadi.*

As-Sullamiy, al-Bug'i, at-Termizi nisbalari allomaning ajdodlari tug'ilgan joyi, yashagan maskaniga nisbatan olingan. Muhammad ibn Iso hijriy 209-milodiy 824-yilda Bug' qishlog'ida, endilikda Sherobod tumanidagi Chuqurko'l qishlog'ida dunyoga kelgan. Yoshlik yillarda uning qalbida hadissunoslilik ilmiga muhabbat uyg'onadi. Bu ilmni

mukammal egallash uchun Iroq, Xuroson o'lkalariga, Makka, Madina, Damashq shaharlariga borib, ulug' allomaldan ilm al-qiroat, al-bayon, fiqh, tarix, falakiyot kabi fanlarni chuqur o'rganadi. Bu keyinchalik uning ulug' mutafakkir, qomusiy alloma darajasiga yetishishiga xizmat qiladi.

Abu Iso at-Termizi hadis ilmiga bag'ishlab ko'plab asarlari yozgan. Shulardan aksariyoti, «Kitob at-Tarix» («Tarix kitobi») bizning davrimizgacha yetib kelgan. Allomaning eng mashhur asari «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»)dir.

Abu Iso Muhammad at-Termiziyan boy ilmiy meros qoldi. Uning asarlaringin qo'lyozmalarini bugungi kunda

dunyoning turli kutubxonalarida, muzeylari va xazinalarida saqlanmoqda. Uning «Al-jome' as-sahih», «Ash-shamoi an-nabaviya» asarlari islam dorilfununlarida o'qitilmoqda. Ma'lumki, alloma

## Allomaning «Sunani at-Termizi» asaridan

- Ikki narsa borki, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi. Biri - sog'lik, ikkinchisi - bo'sh vaqt.
- Hech biringiz ezbilik ishini kichkinasini ham e'tibordan qoldirmangiz.
- Yaxshi xulq ochiq yuzlikdir, ezbilikni yoyish va odamlardan aziyatni uzoqlashtirishdur.
- Yaxshilik qilish umrni uzaytiradi.
- Salomlashishning eng ulug'i qo'l ushlashib ko'rishmoqdur.

asarlarini arab tilida yozgan. Endilikda bu asarlarning bir qismi g'arb va sharqning o'ndan ortiq tillariga o'girildi. Ko'plab sharhlarni yozildi. «Ash-shamoi an-nabaviya»ning XVI asrga oid bir qo'lyozmasi Toshkentda Movarounnahr musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. U bir necha bor qaytdan nashr qilindi. «Sunan Termizi» asari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Hozirgi paytda allomaning boshqa asarlarni ham turli tillarga tarjima qilish va ularni ilmiy tadqiq etish borasida ishlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda alloma nomini ulug'lash, xotirasini abadiylashtirish borasida ham xayrla ishlar qilindi.

## ALPOMISHGA ALLA AYTGAN EL

*Surxon vohasi qadimdan bilim o'chog'i bo'lgan. U muqaddas tuproqdan sayyoohlarning qadami hech qachon uzilmaydi. Termiziylarning tabarruk izlari bor bu ona zaminda qancha ulug' allomalar o'tganligi haqida tarix sahifalarida keng yoritilgan. Alpomishga alla aytgan elning alp farzandlari dunyo maydonlarida o'zlarining kimligini namoyon etmoqda. Siz uchun gulasta etmoqchi bo'lganimiz, ijod olamining gulzorlaridan gul saralab, qalblardan yo'l izlayotgan sohir so'z egalarining ko'ngil bitiklari arg'umoniidir. Sahifamiz mehmoni bo'lgan surxondaryolik yoshlar ijodi sizning ham ko'nglingizni tog'dek ko'taradi, degan umiddamiz.*

Gazetamizning doimiy muxlislaridan biri Oltinsoy tumanidagi 30-umumta'l'm maktabining 6-sinf o'quvchisi Zulfizar Rajabova 2014-yilni muvaffaqiyatlar bilan yakunladi.

Yosh ijodkorning «Oymomoning ertagi» nomli kitobi bosmdan chiqdi. «Kamalak yulduzları – 2014» festivalining respublika bosqichida faol ishtirot etdi.



### OMON BO'LING

Bo'ldi go'zal bir zamon,  
Yashaymiz dörlamon,  
Vatan biz-la topdi shon,  
Omon bo'ling, yurtdoshlar.

Tinchliksevar eldirmiz,  
Qalbi toza, nurli yuz,  
Buyuk yo'lga chiqdik biz,  
Omon bo'ling, yurtdoshlar.

Ezgulik bo'ldi mayoq,  
Hilpirar ko'kda bayroq,  
Dildan so'z kelar shu choq,  
Omon bo'ling, yurtdoshlar.



### HUMO QUSHI AYLASIN PARVOZ

Bir Vatan bor bu olam ichra,  
Qadim elim, jonom-jahonim.  
Bobolardan qolgan merosim,  
Aziz yurtim, O'zbekistonim.

Sen yashaysan jajji qalbimda,  
Osuda, tinch bog'-u bo'stonim,  
Gullab yashna, soyabonimsan,  
Ona yurtim, O'zbekistonim.

Humo qushi aylasim parvoz,  
Mangu obod hur gulistonim.  
Bor bo'l ushbu ko'hna zaminda,  
Navqironim, O'zbekistonim.

**Mahliyo RAVSHANOVA,**  
Boysun tumanidagi 2-umumta'l'm  
maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

### TABIATGA KO'NGIL BOG'LASANG

Bu lahzalar nodir va kamyob,  
Quchog'iga o'zingni otgil.  
Yuragingni tubida turgan,  
Shiringina so'zingni aytgil.

Dov-daraxtga to'yguncha termil,  
Oqib kirsin ruhingga gullar.  
Maysalarni beg'ubor do'st bil,  
Ishonchingni oqlaydi ular.

Hislar tiniq, tuyg'ular asl,  
Sen sog'ingan baxt bu ilg'asang.  
Bo'laverar, tushunar fasl,  
Tabiatga ko'ngil bog'lasang.

**Zulfizar XUDOYQULOVA,**  
Uzun tumanidagi Maishiy xizmat  
kasb-hunar kolleji o'quvchisi

Vatanimdir go'zal bo'ston,  
Bag'ring erur jannatmakon.  
Shaharlarin go'zal biram,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Farzandlaring bir tan-u jon,  
Bir-birigadir mehribon.  
Kelajagi buyuk makon,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

Qishloqlaringdir farovon,  
Qayga boqsang obod har yon.  
Seni tanir butun jahon,  
O'zbekiston, O'zbekiston!

### TINCHLIK ELCHISI



Tinchlik elchisi bo'lib,  
Ko'kka uchar kabutar.  
Ummonlardan zavq olib,  
Keltiradi xushxabar.

Xushxabering bizlarga,  
Baxt keltirsin ilohim.  
Barcha el-u xalqlarga,  
Tinchlik tilayman doim.

**Yulduz XO'JAMURODOVA,**  
Qiziriq tumanidagi 49-umumta'l'm  
maktabining 8-sinf o'quvchisi



**Sevara TOSHTEMIROVA,**  
Sherobod tumanidagi  
56-umumta'l'm maktabining  
7-«B» sinf o'quvchisi

### QUYOSHIMSIZ, ONAJON



Ro'zg'orimiz bekasi,  
Ko'nglimiz farishtasi,  
Uyimiz sarishtasi,  
Quyoshimsiz, onajon.

Issiq yoz kunlari ham,  
Sovuq qish tunlari ham,  
Hamma narsa jamuljam,  
Dildoshimsiz, onajon.

Bizga har kun muallim,  
Shakllansin deb bilim,  
Hayotdan berar ta'lim,  
Sirdoshimsiz, onajon.

Konga o'xshar mehringiz,  
Gulga qiyos yuzingiz,  
Nurga to'la izingiz,  
Yo'Idoshimsiz, onajon.

**Tamanno BOBOQULOVA,**  
Sariosiyo tumanidagi  
68-umumta'l'm maktabining  
7-sinf o'quvchisi

## VOHANING YOSH CHAMPIONLARI

Bugungi kunda yurtimizda bolalar sportini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bois, jahon arenalarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilayotgan yosh sportchilarining g'abalabari yildan yilga ortib bormoqda.

Respublikamizning barcha hududlari, hatto olis qishloq va ovullarda ham muhtasham va zamonaviy sport inshootlarining foydalanishga topshirilayotgani, mazkur inshootlarning sport anjomlari, zarur jihozlar hamda malakali murabbiylar bilan ta'minlanayotgani, joylarda turli sport musobaqlari tashkil etilayotgani o'g'il-qizlar o'tasida sportni ommalashtirish, ularning g'abalaga bo'lgan intilishini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar ham e'tiborga molik.

Jumladan, viloyat xalq ta'limi tizimida 2777 nafr jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyat ko'rsatib, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi o'quvchilar 163365 nafrni tashkil etadi.

O'tgan yili respublikamiz hamda xalqaro miqyosda

o'tkazilgan turli musobaqlarda surxondaryolik yoshlari sovrinli o'rinnlarni qo'liga kiritishdi. Tailandda sportning muay-tay turi bo'yicha bo'lib o'tgan jahon championatida Sho'ichi tumanidagi 36-umumta'l'm maktab o'quvchisi Nozimbek Umarov faxli 1-o'rinni qo'iga kiritib, oltin medal sohibi bo'ldi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Kaliningrad shahrida bo'lib o'tgan taekvando WTF sport turi bo'yicha xalqaro turnirda Termiz shahridagi 13-umumta'l'm maktab o'quvchisi Najmiddin Qosimhojiyev 32 kg. vaznda 1-o'rinni, Jarqo'rg'on tumanidagi 41-umumta'l'm maktab o'quvchisi Mohira Raimjonova 49 kg. vaznda 2-o'rinni, shu maktab o'quvchisi Kimyo Eshboyeva 68 kg. vaznda 3-o'rinni sohiblari bo'lishdi.

Toshkent shahrida bo'lib o'tgan yengil atletika bo'yicha



respublika championatida Termiz shahridagi 1-umumta'l'm maktab o'quvchisi Ozoda Ibragimova kumush medal sohibi bo'ldi.

Futbol bo'yicha o'tkazilgan an'anaviy XVIII futbol musobaqasining hududi saralash bosqichida Qumqo'rg'on tuman Davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati jamoasi katta yosh guruhi 1999-2000-yillarda tug'ilganlar o'tasida 1-o'rinni, kichik yosh guruhi 2001-2002-tug'ilganlar o'tasida 3-o'rinni egallab, Respublika final bosqichiga yo'llanmani qo'iga kiritishdi.

«Umid nihollari-2014» sport musobaqlarining viloyat hududiy bosqichi 4 ta hududga bo'linib o'tkazildi. Musobaqlarda jami 2992 nafr, shundan 1064 nafr qizlar ishtiroy etishdi.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish hamda joylarda sport inshootlaridan samarali foydalanish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida «Quvnoq startlar» sport musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra Muzrabot tumani 14-umumta'l'm maktabining «Qo'nig'iroq» jamoasi 1-o'rinni, Qumqo'rg'on tumani 2-umumta'l'm maktabining «Parvoz» jamoasi 2-o'rinni, Denov tumani 27-umumta'l'm maktabining «Qaldirg'och» jamoasi hamda Sho'ichi tumani 34-umumta'l'm maktabining «Lochin» jamoasi 3-o'rinni egalladi.

Shuningdek, maktabgacha ta'l'm muassasalari tarbiyalanuvchilari o'tasida ham «Kichkitoy-shirintoy» musobaqasi ikki bosqichda o'tkazildi. Musobaqa yakuniga ko'ra 1-o'rinni Sherobod tuman 2-MTM, 2-o'rinni Jarqo'rg'on tuman 7-MTM, 3-o'rinni Uzun tuman 1-MTM jamoalari egallahdi. Musobaqa jami 140 nafr tarbiyalanuvchilar ishtiroy etishdi.

Bu esa sport yurtimizning barcha hududida birdek rivojlanayotgani, viloyatlarda barpo etilayotgan zamonaviy va muhtasham sport inshootlarining yetarli sharoitga ega ekanidan, iste'dod egalari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganidan dalolat beradi.

boshqarmasiga qarashli 1-bolalar va o'smirlar sport maktibi ham hozirda respublikamizda o'z nufuziga ega dargohlardan biriga aylanib ulgurdi. Yoshlarning sevimli maskaniga aylangan ushbu majmuuda 581 nafr o'g'il-qiz yurtimiz va xalqaro musobaqlarda faol ishtiroy etib kelishmoqda. E'tiborli, uch yuzdan ziyod sportchi qizlar badiiy gimnastika bilan muntazam shug'ullanishmoqda.

Muhammadsodiq ALIMOV  
tayyorladi



## G'ALABAQA CHORLOVCHI MASKAN

«Agar mendan, eng kuchli, eng baqvavat polvonlar qayerda yashaydi, deb so'rasha, hech ikkilanmasdan, avvalo, Surxondaryoda, deb aytgan bo'lardim».

Prezidentimizning Termiz shahriga Amir Temur ordenini topshirishga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida keltirgan ta'riflari bu zaminda voyaga yetayotgan jismonan barkamol yoshlarga naqadar yarashadi.

Viloyatda bolalar sportini rivojlantirish, yoshlarni sportga jaib etish maqsadida zamonaviy jihozlarga ega sport inshootlaridan foydalanishni keng yo'iga qo'yish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda Termiz shahridagi 16-sonli bolalar va o'smirlar sport makkabida yarim millionga yaqin yoshlar sportning kurash, boks, dzyudo, badiiy va

sport gimnastikasi turlari bo'yicha shug'ullanib kelmoqda. Endilikda maskan sportchilari nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro musobaqlarda ham sovrinli o'rinnlarni egallamoqda.

Shuningdek, mazkur shahardagi Surxondaryo viloyati Xalq ta'limi



## QO'LIMDA DUTORIM

Vatan madhin kuylayman

- Dutorni barmoq emas, yurak chaladi, deyishadi. Shu sababdan ham u yuraklarga yetib boradi, - deydi Termiz shahridagi 11-umumta'l'm maktabining 6-«G» sinf o'quvchisi Durdona Qurbonova.

«Kamalak yulduzlar-2014» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi sovrindori Durdona maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, musiqa bilan ham shug'ullanadi. Kelgusida o'zining yoqimli kuy-qo'shiqlari bilan atrofdagilarga ezzulik ulashish istagida. Biz esa unga omad tilaymiz va orzularing ijobat bo'lsin, deymiz!




## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR! «SERQUYOSH DIYOR» AYLANMA KROSSVORDI

1. Termizdagi suv sporti maskani. 2. Rangtasvir ustasi, O'zbekiston xalq rassomi. 3. Ovlandigan sayroqi tog' qushi. 4. Termiz tumanidan o'tuvchi daryo. 5. Qumyo'rg'on tumanidagi naslchilik-qorako'chilik xo'jaligi. 6. Viloyatning Amudaryo sohilidagi ko'hna shahar xarobasi. 7. Cho'l hududiga xos chorva giyohi. 8. Jarqo'rg'on tumanidagi nefi koni. 9. Boysundan oqib o'tuvchi irmoqlardan biri. 10. Viloyat sharqidagi tizma tog'. 11. Qo'riganidan kamyoj jonivor. 12. Sho'chi tumanidagi shaharcha nomidan: ... bekati. 13. Faoliyat olib borayotgan folklor etnografik ansambl. 14. Sherobod dostonchilik maktabining atoqli ijodkori. 15. Sherobodagi shifobaxsh oromgoh. 16. Xalq dostoni nomi bilan ataluvchi sport majmuasi.

### O'QING-CHI!

Chizmaning o'rta qismidagi aylanalaridan bosh harfni topib, bir miqdordagi aylanlarni qoldirib o'qing. Bunda ulardan o'rta asrlarda bir tarmon 'i Surxondaryo huddididan o'tgan Sharq va G'arb mamlakatlarini ilk bor bog'lagan karvon yo'lining nomi ayon bo'ladi.



Tuzuvchi:  
Husan ORIPOV

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Surxondaryo viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshiligi 'Alisher Pardayevga va barcha mutasaddilarga o'z minnadorchiligimizi bildirilgan.

Maxsus sonni tayyorlaganlar: F.Adi洛va, F.Matoqubov, Yu.Abdullayev, A.Karimov, N.Qidiraliyev, D.Hotamova, J.Matoqubov, D.Shakirova, O.Tursunboyeva, N.Abdullayeva, Sh.Maxmadiyev, Z.Mamatqulova.

8



Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga  
garashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'anil XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtaza SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rbinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

## SHODON O'TAR KUNIMIZ

Bobojonim kelgan kun,  
Nurge to'lar uyimiz,  
Buvijonim-la shodon,  
O'tar har bir kunimiz.

Yangi yilimiz «Keksalarni e'zozlash yili» deb nomlanishi sherobodlik yosh ijodkor o'quvchini ham quvontirdi.

Zarina MISIROVA Sherobod tumanidagi 1-umumta'l'm maktabining 8-sinfida tahsil oladi. Bo'sh vaqtlarida rasm chizishni yaxshi ko'radigan tengdoshingiz o'zining chizgilarini «Keksalarni e'zozlaymiz», deb nomlabdi.

## «TONG YULDUZI» — MENING GAZETAM

Sevimli nashrimga birinchilardan bo'lib obuna bo'ldim. Endi tengdoshlarim ijodi bilan bir yil mobaynida muntazam tanishib boraman. Sinfoshlarimga ham ushbu gazetaga obuna bo'lishlarini tavsija qildim. Chunki aqlini charxlaydigan krossvordlar, turli mazmundagi she'rlar-u topishmoqlar, ertaklar, hikoyalarni aynan mana shu gazetadan topish mumkin. Men chizgan rasmlarimidan birini e'tiboringizga havola qilyapman.



Sarvaroy NE'MATULLAYEVA,  
Termiz shahridagi 3-umumta'l'm  
maktabining 3-sinf o'quvchisi



Bunyod XURSANOV,  
Surxondaryo viloyati,  
Muzrabot tumani



Pokizabonu  
QARSHIYEVA,  
Jarqo'rg'on  
tumanidagi  
43-umumta'l'm  
maktabining 2-sinf  
o'quvchisi


## SURXONCHA QATLAMA

Aziz qizlarjon, so'lim Surxondaryoning barchaga birde yoqadigan tandir go'shti-yu sho'rvasini tatib ko'rman, qatpatirini yeb ko'rman kishi topilmasa kerak. Bugun sizlarga tavsija qilayotgan pishirig'imiz surxoncha qatlama deb nomlanadi. Uni pishirib ko'ring, og'zingizda erib ketishiga biz kafil.

Kerakli masalliqlar: 150 gramm mol  
yog'i, keragicha un, suv, tuz.

Tayyorlanishi: mol yog'i eritilib, teng  
miqdorda tuzli suv qo'shiladi va yumshoq  
xamir qoriladi. Yarim soatcha tindirilgan  
xamir to'rburchak shaklida yoyilib, orasiga  
biroz eritilgan mol yog'i surtiladi va konvert shaklida yopilib,  
yana olib qo'yiladi. Ikkii-uch marta shu holat takrorlangach, xamirdan kichik  
zuvalachalar tayyorlanadi. Har bir zuvalacha yoyilib, orası yog'lanadi va  
dumaloqlanadi, so'ngra yoyilib, qizdirilgan yog'da pishirib olinadi. Tayyor bo'lgan  
qatlalamalarni dasturxonga tortishdan oldin ustiga shakar sephisni unutmang.

Yoqimli ishtaha!



NARGIZA tayyorladi

19-yanvar 2015

### Manzilimiz:

Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.

Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi — 45000  
Buyurtma — S 1884